

**To’garak mashg’ulotlarida yozuvchi asarlarini tahlil qilish usullari****Muazzam Zokirjonova****Magistr****ANNOTATSIYA**

Mazkur tadqiqotda Odil Yoqubov ijodini sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o’rganish usullari yoritilgan. Darsdan tashqari faoliyat o’quvchilarning yozuvchi asarlarini chuqurroq o’rganishiga, badiiy tafakkurini rivojlantirishga va ijodkor shaxsini yaxshiroq tushunishiga xizmat qiladi. Adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, teatrlashtirilgan sahnalashtirishlar, audio va video materiallardan foydalanish kabi metodlar taqdim etilgan.

Kalit so’zlar: Adabiy kechalar, ijodiy uchrashuvlar, teatrlashtirilgan sahnalashtirishlar, audio va video materiallar.

ANNOTATION

This thesis explores methods for studying the works of Odil Yoqubov during extracurricular activities. Such activities help students gain a deeper understanding of the writer’s works, develop their artistic thinking, and better comprehend the author’s personality. The paper presents methods such as literary evenings, creative meetings, theatrical performances, and the use of audio and video materials.

Keywords: Literary evenings, creative meetings, theatrical performances, audio and video materials

Maktab adabiy ta’limida o’quvchilarni mustaqil mutolaaga yo’llash, erkin fikrlashga o’rgatish, badiiy asar mutolaasini faqat dars jarayoni bilan cheklamay, hayotiy ehtiyoj va doimiy mashg’ulotga aylantirish asosiy maqsadlardan ekanligi bot-bot takrorlanadi. Bu yo’nalishda yaxshi natijalarga erishish uchun esa, ayniqsa, murakkab adabiy uslubdagi, muhim tarixiy davr yoritilgan yoki hajman yirik asarlar mutolaasi va tahlilini bir soatlik dars jarayoniga sig’dirish mushkul vazifadir. Badiiy mutolaa va adabiy tahlil mukammal o’zlashtirilishi uchun esa darsdan tashqari mashg’ulotlar eng yaxshi to’ldiruvchi vazifasini o’taydi.

Badiiy to’garaklar – o’quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladigan guruhlar bo‘lib, ularning bo‘sh vaqtlarini maqsadli tashkil etish, faol ijtimoiy munosabatlarga jalb etish, ma’naviy, g‘oyaviy estetik ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, yoshlarning o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga sharoit yaratish, shuningdek tarbiya, targ‘ibot, tashviqot funksiyalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan, ixtiyoriy, baholanmaydigan mahsuldor (ijodiy) faoliyat shakli hisoblanadi. Odil Yoqubov hayoti va ijodini o’rganish ham to’garaklar kesimida olinsa, 6-sinfda yozuvchining dasturda mustaqil o’qish uchun berilgan “Muzqaymoq” hikoyasini o’qish, 9-sinfda “Ulug‘bek xazinasi” romanining to‘liq matni bilan



tanishish tarzida olib borilishi mumkin.

Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi 6-sinf darsligida mustaqil o‘qish uchun berilgan. Bu hikoya tahlilini to‘garak mashg‘ulotida o‘tkazish ayni muddao. Hikoya hayotiy bir voqeaga asoslangan bo‘lib, uning markazida oddiy, lekin juda ahamiyatli insoniy munosabatlar turadi. Hikoyada insonning ezgulikka, mehr-muruvvatga bo‘lgan ehtiyoji, bolaning orzulari va kattalar olamining ba‘zan beparvo munosabati tasvirlanadi. Asarning asosiy g‘oyasi shundaki, hayotning eng oddiy lahzalari ham inson qalbida chuqur iz qoldirishi mumkin.

Mashg‘ulot boshida asarning syujeti va kompozitsiyasi haqida qisqacha tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiq:

Hikoya kichik bir voqea atrofida qurilgan. Unda bosh qahramon – bola tasvirlanadi. U muzqaymoq yemoqchi bo‘ladi, ammo hayotning achchiq haqiqatlari tufayli bu orzusini amalga oshira olmaydi. Hikoya davomida bolalarning orzulari, ular uchun oddiy ko‘ringan narsa kattalar olamida qanday katta ahamiyatga ega ekani ochib beriladi. Syujet keskin burilishlarga ega bo‘lmasa-da, undagi hissiy tasvirlar o‘quvchiga ta’sir o‘tkazadi.

Qahramonlar xarakteri haqida har bir ishtirokchi turlicha fikr bildirishi mumkin:

Bosh qahramon (bola) – orzulari katta bo‘lgan, beg‘ubor, hayotga mehr bilan qaraydigan inson. Uning qiyinchiliklar qarshisidagi holati o‘quvchiga achinish va mehr uyg‘otadi. Kattalar – bolaga nisbatan befarq yoki hayotning shafqatsiz qoidalariga ko‘nikkan kishilar. Ular bolalik orzularini tushunmaydi yoki ularga beparvolik bilan qaraydi.

Asarning asosiy muammosi haqida **bahs-munozara** o‘tkazish mumkin. Hikoya jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy muammolarni ko‘rsatadi. Kattalar va bolalar dunyosi o‘rtasidagi tafovut, mehr va e’tibor yetishmovchiligi hikoyaning asosiy muammolaridan biridir va bu muammolar barcha zamonlarda o‘zgarmas ahamiyat kasb etishiga ham urg‘u beriladi. Muzqaymoq – oddiygina sovuq shirinlik emas, balki bolaning beg‘ubor orzusi, hayotdan kichik baxt kutishi ramzi sifatida berilgan. To‘garak davomida hikoyadagi badiiy vositalar va tasvir usullariga e’tibor qaratish ham muhim.

Odil Yoqubov hikoyada tasviriy vositalardan mohirona foydalanadi. U bola ruhiyatini yorqin detallarda aks ettiradi. Quyidagi badiiy vositalar diqqatga sazovor:

Timsollar – muzqaymoq bolaning orzusini, uning hayotga bo‘lgan ishonchini anglatadi.

Hissiy tasvir – bolaga nisbatan achinish tuyg‘usi uyg‘otuvchi tasvirlar mavjud o‘rinlarni asar matnididan ajratib ko‘rsatish.

Muzqaymoq timsoli orqali hikoyada hayotning sovuqligi, insonlar orasidagi munosabatlarning ba‘zan loqaydligi his etiladi.

Xulosa

"Muzqaymoq" hikoyasi insoniy mehr, bolalarga nisbatan e’tibor va orzularning beqiyos ahamiyatini yoritib beradi. Kattalar uchun oddiy ko‘ringan narsa bola uchun katta baxt bo‘lishi mumkin. Hikoya orqali muallif jamiyatdagi befarqlik, mehr-muhabbatning



qadrsizlanishi kabi muammolarga urg'u beradi va o'quvchini mulohazaga undaydi. Shu jihatdan mustaqil o'qish uchun berilgan ushbu hikoyani sinfdan tashqari mashg'ulotlarda tahlil qilish muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qosimov B. Milliy uyg'onish. —Toshkent, “Ma'naviyat”, 2002, 65 b
2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. —Toshkent: 2016, 100 b
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006, 52 6-b.
4. Uzluksiz adabiy ta'lim yo'rig'i (konsepsiyasi). Qori Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institute. – Toshkent: 1995, 3-b.
5. Xioyatova D. Interfaol ta'lim modeli vositasida ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar o'zbek tili o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish. Diss. ... ped.fan. fals. dok. – Toshkent: 2017, 120 b.
6. Yo'ldoshev Q. O'qituvchi kitobi. (7-sinf darslik majmuasi uchun) - Toshkent: O'qituvchi, 1997, 230 b